

JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA AYBLOVNI O'ZGARTIRISH VA TUGATISH INSTITUTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Uteniyazov Keulimjay Kuanishbayevich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: u_keulimjay@karsu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17277123>

Annotatsiya. Ushbu tezisda jinoyat-protsessual huquqda ayblovni o'zgartirish va tugatish institutining nazariy-huquqiy mazmuni hamda uning rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba misolida sud nazorati, himoya huquqlarini kafolatlash va adolatli sudlov tamoyillarining qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va sud-tergov amaliyotida mavjud muammolar yoritilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Tezis jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish va adolatli sudlov tamoyillarini amalda ta'minlash uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ayblov, jinoyat-protsessual huquq, ayblovni o'zgartirish, ayblovni tugatish, sud nazorati, himoya huquqlari, rivojlantirish istiqbollari, adolatli sudlov.

Jinoyat-protsessual huquqda ayblovni o'zgartirish va tugatish instituti muhim protsessual mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu institutning amaldagi huquqiy tartibga solinishi bir tomondan, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi manfaatlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayblovni o'zgartirish sud-tergov jarayonida dalillarni qayta baholash, jinoyatning huquqiy kvalifikatsiyasini aniqlashtirish yoki yengilroq modda bilan almashtirish imkoniyatini beradi. Ayblovni tugatish esa aybsizlik prezumpsiyasi prinsipini ro'yobga chiqarib, shaxsni asossiz javobgarlikdan ozod etadi.

So'nggi yillarda jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish va inson huquqlarini ta'minlash borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sud amaliyotida ayblovni o'zgartirish va tugatish institutini qo'llashda qator muammolar mavjud: prokurorning ustuvor vakolatlari, sud nazoratining zaifligi, ayblanuvchini o'z vaqtida xabardor qilish mexanizmlarining yetarli emasligi va ayblovni tugatish institutining amalda kam qo'llanishi shular jumlasidandir.

Xalqaro tajribada ushbu institutning samarali ishlashini ta'minlash uchun sudning faol roli, himoya huquqlarini kafolatlash va adolatli sudlov tamoyillariga qat'iy rioya etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O'zbekiston qonunchiligini rivojlantirishda xorijiy tajribani o'rganish, milliy huquqiy tizimdagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu institutlarning asosiy vazifasi jinoyat-protsessual faoliyatda muvozanatni ta'minlashdir. Bir tomondan, ular davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi manfaatlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan, ayblanuvchining konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni kafolatlaydi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayblovni o'zgartirish va tugatish institutini samarali qo'llashning eng muhim sharti — sud nazorati va himoya huquqlarining to'liq ta'minlanishidir. Masalan, Germaniya jinoyat-protsessual kodeksida "kutilmagan ayblovga yo'l qo'ymaslik" prinsipi mustahkamlangan bo'lib, ayblanuvchini tayyorgarliksiz vaziyatga qo'yish qat'ian taqiqlanadi. Angliya va Uelsda prokuror sud ruxsatisiz ayblovni o'zgartira olmaydi. AQSh

amaliyotida esa “due process of law” prinsipi ustuvor bo‘lib, ayblovni o‘zgartirishda sudning roziligi va himoya huquqlarining cheklanmasligi majburiydir.

Fransiya, Italiya va Yaponiya kabi davlatlarda sudning faol roli muhim o‘rin tutadi. Bu mamlakatlarda ayblovni o‘zgartirish yoki tugatish jarayonida sud himoya tomoni uchun yetarli sharoit yaratishi shart. Rossiya va Turkiya qonunchiligida ham ayblovni tugatish keng qo‘llanadi, bu esa ortiqcha sud xarajatlari va protsessual resurslarning tejankor ishlatilishini ta‘minlaydi. Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki ular orqali milliy qonunchilikda sud nazoratini kuchaytirish va himoya huquqlarini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida ayblovni o‘zgartirish va tugatish institutiga oid normalar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda ularni samarali qo‘llashda qator kamchiliklar kuzatiladi. Avvalo, prokurorning vakolatlari sudga nisbatan kengroq bo‘lib, bu protsessual tenglik prinsipini buzishi mumkin. Amaliyotda ko‘pincha ayblovdagi o‘zgarishlar haqida ayblanuvchi vaqtida xabardor qilinmaydi yoki himoya tayyorgarligi uchun yetarli muddat ajratilmaydi.

Bundan tashqari, ayblovni tugatish instituti yetarlicha samarali qo‘llanmaydi. Jinoyat tarkibi aniqlanmagan hollarda ham ishni sudgacha olib chiqish amaliyoti mavjud. Bu esa aybsizlik prezumpsiyasini buzish, ortiqcha protsessual xarajatlar va sud tizimining ortiqcha yuklanishiga olib keladi. Shuningdek, xalqaro standartlar bilan taqqoslaganda, milliy qonunchilikda sud nazorati zaifligi seziladi. Bu esa ayblanuvchining huquqlarini to‘liq ta‘minlash imkoniyatini cheklaydi.

Sudgacha bo‘lgan bosqichda ayblovni to‘ldirish yoki o‘zgartirishga asos bo‘luvchi holatlar aniq belgilab qo‘yilmagan. Amaldagi normativ hujjatlarda bunday protsessual qarorlar qaysi vaziyatlarda va qanday shartlar asosida qabul qilinishi mumkinligi batafsil ko‘rsatilmaganligi sababli, tergov va prokuratura organlari amaliyotida turlicha yondashuvlar kuzatilmoqda. Natijada, bir xil holatlarda turli qarorlarning qabul qilinishi huquqni qo‘llashda barqarorlik va izchillikni ta‘minlash imkoniyatini cheklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 415–417-moddalarida sudning ayblovni o‘zgartirish bo‘yicha ayrim vakolatlari ko‘rsatilgan. Biroq ushbu normalar sudga faqat ayblovning bir qismini chiqarib tashlash imkoniyatini beradi, xolos. Amalda esa sud tomonidan ayblovni to‘liq o‘zgartirish yoki to‘ldirish mexanizmlari ushbu bosqichda yetarli darajada tartibga solinmagan.

Normativ asoslarning bunday cheklanganligi sud jarayonida protsessual noaniqliklarni yuzaga keltiradi va turli talqinlarga sabab bo‘ladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sud ayblovni o‘zgartirish, tugatish yoki to‘ldirish vakolatiga ega bo‘lganda, ushbu jarayonning huquqiy asoslari batafsil ko‘rsatiladi. Masalan, Germaniya yoki Italiya qonunchiligida sud tomonidan ayblovni o‘zgartirishning aniq shartlari va tartibi belgilangan bo‘lib, bu protsessual barqarorlikni ta‘minlaydi hamda sudlovning adolatli kechishini kafolatlaydi. O‘zbekiston qonunchiligida esa bunday to‘liq mexanizmning mavjud emasligi mazkur institutning samarali qo‘llanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ayblovni o‘zgartirish va to‘ldirishga oid normalar mavjud bo‘lsa-da, ularda ayblovning og‘irlashtirilishi yoki yengillashtirilishi oqibatida ayblanuvchining protsessual huquqlari qanday kafolatlanishi masalasi aniq tartibga solinmagan. Xususan, ayblov qayta ko‘rib chiqilganda himoyachiga

tayyorgarlik ko'rish uchun minimal muddatlar, yangi dalillardan xabardor etish tartibi yoki sud majlisini kechiktirish mexanizmlari JPKda ko'rsatilmagan. Bu esa amaliyotda turli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ba'zi hollarda ayblanuvchi va uning himoyachisi ayblovdagi o'zgarishdan kech xabardor bo'ladi, natijada himoya qilish imkoniyati cheklanadi.

O'zbekiston Respublikasida ayblovni o'zgartirish, tugatish va to'ldirish institutiga oid normalar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ushbu institutni samarali qo'llashda qator kamchiliklar kuzatilmoqda. Shu bois mazkur institutni rivojlantirish bo'yicha huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Avvalo, Jinoyat-protsessual kodeksida ayblovni o'zgartirish, tugatish va to'ldirishga oid alohida modda yoki mustaqil bob joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv xorijiy mamlakatlar qonunchiligida keng qo'llanilib, protsessual tartibning aniq belgilanishini ta'minlaydi. Bu esa huquqni qo'llashda yagona amaliyotning shakllanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, sudgacha bo'lgan bosqichda ayblovni o'zgartirish yoki to'ldirishga asos bo'luvchi holatlar aniq ko'rsatilishi lozim. Xususan, yangi dalillarning paydo bo'lishi, jinoyat tarkibining noto'g'ri kvalifikatsiyasi yoki qo'shimcha jinoyat unsurlarining aniqlanishi kabi mezonlarning qonunda mustahkamlanishi tergov va prokuratura organlari faoliyatida yagona yondashuvni shakllantiradi.

Uchinchidan, sud vakolatlari kengaytirilishi zarur. Amaldagi qonunchilikda sud faqat ayblovning ayrim qismini chiqarib tashlash huquqiga ega bo'lsa, kelgusida sudga ayblovni to'liq o'zgartirish yoki to'ldirish bo'yicha vakolat berilishi lozim. Bu nafaqat sud nazoratini kuchaytiradi, balki protsessual adolatning ta'minlanishiga ham xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ayblanuvchining huquqlarini kafolatlash mexanizmlarini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayblov og'irlashtirilganda yoki to'ldirilganda ayblanuvchiga va uning himoyachisiga tayyorgarlik ko'rish uchun minimal muddat qonun bilan belgilanishi kerak. Shuningdek, sud majlisini kechiktirish tartibi va yangi dalillar bilan tanishish imkoniyatlari normativ asosda mustahkamlanishi lozim.

Beshinchidan, milliy qonunchilik xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilishi zarur. Yevropa Inson huquqlari sudi tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayblovdagi har qanday o'zgarish himoya huquqlarini cheklemasligi va aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga zid bo'lmazligi kerak. Shu bois, JPKda ushbu tamoyillarni mustahkamlash orqali adolatli sudlov kafolatlari kuchaytirilishi mumkin.

Umuman olganda, ayblovni o'zgartirish, tugatish va to'ldirish institutini takomillashtirish sud nazoratini kuchaytirish, sudgacha bo'lgan bosqichdagi huquqiy aniqlikni oshirish, sud vakolatlarini kengaytirish, ayblanuvchining huquqlarini kafolatlash hamda xalqaro standartlarga moslash orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa jinoyat-protsessual qonunchilikning izchil rivojlanishiga va adolatli sudlov tamoyillarining amalda ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Strafprozessordnung (StPO) der Bundesrepublik Deutschland, § 265
2. Criminal Procedure Rules of England and Wales, Part 14 (Amendment of indictment).
<https://www.legislation.gov.uk/ukxi/2014/1610/part/14/made>
3. U.S. Supreme Court, *Stirone v. United States*, 361 U.S. 212 (1960).
<https://supreme.justia.com/cases/federal/us/361/212/>

4. Code de procédure pénale (CPP), Articles 79–189.
https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006071154/
5. Codice di procedura penale, Italia, Art. 516–522.
<https://www.altalex.com/documents/codici-altalex/2014/10/30/codice-di-procedura-penale>
6. Keiji shohō (Japanese Code of Criminal Procedure), 1948, Articles 312–318.
<https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/2056/en>